

## O‘ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDA QIMMATBAHO TOSH VA MA‘DAN NOMLARINING AYRIM USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Dilnoza Anvarovna Radjabova**

BUXDU mustaqil izlanuvchisi, Muhammad al -Xorazmiy nomidagi

TATU katta o‘qituvchisi

[dilnozaradjabova064@gmail.com](mailto:dilnozaradjabova064@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida qimmatbaho tosh va ma‘dan nomlarining qo‘llanishi va ularning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qimmatbaho tosh va ma‘dan nomlarining qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashda badiiy mazmun yoki badiiy mazmunlar silsilasi – asarning g‘oyasi, asosiy konseptini aniqlashni maqsad qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *qimmatbaho tosh va ma‘dan nomlari, badiiy matn, tilshunoslik, uslubiy xususiyatlar.*

### ABSTRACT

*The article analyzes the use of the names of precious stones and minerals in English and Uzbek literary texts and their stylistic features. Also, it aims to identify the artistic content– the idea, the basic concept of the work when determining the specifics of the use of the names of precious stones and minerals.*

**Keywords:** *the names of precious stones and minerals, literary text, linguistics, stylistic features.*

### KIRISH

Badiiy matnlarning lingvistik xususiyatlari tadqiqida, eng avvalo, shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida to‘liq nazarda tutilishi lozim. Undagi har bir til hodisasiga makon va zamon tushunchasi birligi tushunchasini hisobga olgan holda yondashish kerak. Chunki har bir asar makon va zamon bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Badiiy matnlarda ishtirok etadigan minerologik birliklar, jumladan, qimmatbaho tosh va ma‘dan nomlarining qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishda ham matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir muhim tamoyildir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy matn tarkibida tahlil etilayotgan qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining qo'llanish xususiyatlarini aniqlashda badiiy mazmun yoki badiiy mazmunlar silsilasi – asarning g'oyasi, asosiy konsepti aniqlab olinishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, shaxs kamolotida tarbiyaning o'rni beqiyos. Ko'hna Sharqda tarbiyaga hayot-mamot masalasi sifatida qaralganining boisi ham shunda. Modomiki, avlodlar kamoli tarbiya bilan chambarchas bog'liq ekan, jamiyat taraqqiyotini undan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Alisher Navoiy shuning uchun ham jahon badiiy tafakkuri xazinasidan o'rin olgan asarlarida tarbiyaning shaxs kamoloti, el-yurt ravnaqida tutgan ahamiyatini yuksak baholar ekan, mineralogik birlıklardan o'rinli foydalangan:

*Qatrag'a chun tarbiyat etti sadaf,*

*El boshig'a chiqqucha topti sharaf.*

“Sadafsiz dur bo'lmas, tikansiz – gul” deganidek, ushbu baytda qatraning gavharga aylanishi va boshga qadalish darajasiga yetishi sadafning tarbiyasi sabab ekani ifodasini topgan. **Sadaf** – *ustoz*, **qatra** – *shogird* timsoli. Sadafning tarbiyatisiz qatra hech qachon gavharga aylanmaydi. Ya'ni, ustoz ta'limini olmagan shogird kamolga yetmog'i amri mahol. Faqat, buning uchun muayyan muddat o'tmog'i zarur. Gavharni qo'liga olgan kishi uning qimmatbaho ashyoga aylanmog'i uchun qanday jarayonlarni boshdan kechirgani xususida o'ylab ham o'tirmaydi. Hayotda ham shunday. Komil insonni ko'rganda hamma havas qiladi, lekin u ana shu darajaga qanday mashaqqatlar bilan, qaysi ustoz tarbiyasi evaziga erishgani har doim ham mushohada etilavermaydi. Buyuk shoir bu bayt orqali shaxs tarbiyasida ustozning xizmati beqiyos ekaniga urg'u beradi<sup>1</sup>.

*Quyoshdin tarbiyat gar topsa xoro,*

*Qilur yoqut ila la'l oshkoro.*

*Yoqut* – turli rangda, *la'l* esa qizil tusda tovlanadigan qimmatbaho tosh. Xo'sh, ular ko'zni quvontiradigan bu ranglarni qayerdan olgan? Navoiy fikricha, bu – quyoshdan tarbiyat topgani samarasidir. Agar quyoshdan rang olmasa edi, ular oddiy toshligicha qolar, odamlarning qiziqishiga sabab bo'lolmas edi. Tabiiyki, bu o'rinda mutafakkir yoqut ila la'l haqida so'z yuritar ekan, bayt zamiriga shaxs kamoloti xususidagi teran fikrlarini singdirgan. Ya'ni, inson kamolotini belgilovchi asosiy mezon – tarbiya. Chinakam tarbiyagina odamning imkoniyatlarini, jamiyatga naf yetkazish borasidagi salohiyatini oshiradi.

Navoiy so'zning naqadar ulug'vorligi, beqiyosligi, ma'ni cheksizligini, ruhparvar, jonbaxsh ne'mat, ilohiyot mevasi ekanligini lisoniy zeboliklar ila isbotlab

<sup>1</sup><http://uchildiz.O'zMU> professori, f.f.d. Nurboy Jabborovning “Alisher Navoiy merosi va milliy ma'naviyat” mavzusidagi ma'ruzasi

bergan mohir so‘z san‘atkori. Mutafakkir o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati orqali turkiy til, bugungi o‘zbek adabiy tili rivojining tamal toshini qo‘ydi. Adibning quyidagi ruboiysi «so‘z» ta‘riflarining eng mukammali va originalidir:

*So‘z durki nishon berur o‘likka jondin,*

*So‘z durki xabar berur jonga jonondir.*

*Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,*

*Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin.*

Darhaqiqat, so‘z - inson uchun tiriklik nishonasi, ma‘lumot-axborot almashish vositasi. Insoniyatni hayvonotdan farqlovchi eng qimmatbaho gavhar<sup>1</sup>.

*"Bo‘saye qilmas muruvvat asru qattiqdur labing"*

*Desam, og‘zi ichra aytur: "La‘l ham bor nav‘i tosh".*

Bayt mazmuni: ey yor, shunchalar berahmsanki, to hatto labing bir bo‘sa muruvvat qilmaslik uchun go‘yo qattiq bir jismga aylanib olgan. Bu ham mayli, faqat labing shunday deb o‘ylasam, og‘zing ichidan ham go‘yo shunday botiniy bir sas kelyapti: "Qimmatbaho la‘l ham qip-qizil bo‘lgani bilan, aslida u ham toshning bir turidir"<sup>2</sup>.

*La‘l* – mustahkamligi jihatdan olmos va yoqutdan keying o‘rinda turuvchi, qizil qimmatbaho tosh. Abu Rayhon Beruniy la‘lni quyidagicha ta‘riflagan: "La‘l o‘zining rangi va jilvalanib turishi bilan yoqutga juda o‘xshaydi, lekin qattiqligi jihatdan undan qoladi". Yuqoridagi o‘xshashliklar sabab ushbu mineral uzoq vaqt davomida yoqut deb noto‘g‘ri nomlanib kelingan. Badaxshon (Pomir)da katta la‘l koni topilgandan keyin bu mineralning fizik va kimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan<sup>3</sup>. Shundan buyon "Badaxshon la‘li" ushbu mineralning eng noyob namunasi hisoblanib kelinadi. Shavkat Rahmonning "Turkiylar" she‘ridan olingan quyidagi parchada shoir turkiy xalqlarning qiz-u juvonlarini "Badaxshon la‘li"ga muqoyasa qiladi. Bunda toshning go‘zalligi, maftunkorligidan tashqari uning nodirligiga ham e‘tibor qaratilgan, chunki shoir shunchaki la‘l demasdan, aynan "*Badaxshon la‘li*" birikmasini keltiradi. Bu yerda turkiy malaklarning "Badaxshon la‘li" kabi asil va noyobligiga ishora bor:

*Bu holda buvaklar bo‘g‘ilib o‘lar,*

*Qul Bilol yig‘laydi falakda...*

*O‘zlarin yondirar borlidan to‘ygan*

*Badaxshon la‘liday asil malaklar.*

*Ingliz adabiyitidan olingan quyidagi jummalarda esa asar qahramoni yaratgan ijod namunasi Badaxshon la‘liga o‘xshatilyapti:*

<sup>1</sup> <https://xs.uz/uzkr/42405> So‘zduki, nishon berur o‘likka jondin...

<sup>2</sup> <https://qashqadaryogz.uz/read/mavlono-lutfiy-va-alisher-navoiyning-botiniy-ramzlari>

<sup>3</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/l/lal/> La‘l haqida

“...and yet his *work* stands out from the ruck of the contemporary versifiers as a balas *ruby* among carrots.”<sup>1</sup>

“...shunga qaramay, uning asari sabzi orasidan Badaxshon la’li ajralib turgani kabi zamonaviy versifikatorlardan ajralib turadi

*“Belidan yuqorisi kenggayib borgan, qabariq ko’krakli, keng yag’rinli, miqta gavgdali edi. Yirik, qiyiq, o’tkir qarovchi ko’zlari iroda va ingichka hiyla bilan birga beqarorlik, yengil va sho’x tabiatni ham ifodalar edi. Boshida yirik gavharlar qadalgan yirik qalpoq; egnida yoqasi oltin gullar, qimmatbaho toshlar, rang-barang porlagan qizil arbishim to’n. Enli kamarida oltin qubachalar, yirik gavharlar, Badaxshonning asil la’l-u yoqutlari uluglanar edi”*<sup>2</sup>.

Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidan olingan yuqoridagi parchada Qo’qon xoni Musulmonqul tasviri keltirilganligining guvohi bo’lamiz. Matnda foydalanilgan *yirik gavharlar, oltin gullar, qimmatbaho toshlar, oltin qubachalar, Badaxshonning asil la’l-u yoqutlari* birliklarining o’ziyoq bu shaxsning hukmdor yoinki hukmdor oilasiga mansub shaxs ekanligidan dalolat berib turibdi. Chunki, yuqorida nomlari sanab o’tilgan tosh va ma’danlarning barchasi dunyoda eng qimmatbaho va nodir hisoblanadi. Ularni, asosan, hukmdorlar va ularning oila a’zolari kiyimlarida, zeb-ziynat buyumlarida uchratish mumkin bo’lgan. Hattoki, hukmdorlarga bu kabi qimmatbaho javohirotlar turli davlatmand kishilar, savdogarlar, chet ellik mehmonlar tomonidan sovg’a tariqasida olib kelingan. Shu sababli, hukmdor saroyida dunyoning istalgan burchagida topilgan noyob gavharlar-u olmoslarni uchratish mumkin bo’lgan. Podsholik sallasini esa doimo biron qimmatbaho gavhar yoki olmos bezab turgan. Buni Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” romanidan olingan quyidagi parcha misolida ko’rishimiz mumkin:

*“Dushanba kuni Nizomga Zuhra yulduzining rangiga mos havorang va yashil tuslardagi shohona liboslar kiydirildi. Dastorpech uning boshiga katta gavharlar qadalgan podsholik sallasini kiydirayotganda Humoyun Nizomga ovozi pasaytirib dedi:*

*-Bu gavhar bir vaqtlar rahmatli otam Bobur hazratlarining sallalarida porlab turgan edi. Hazrat Nizomiddin sizga endi o’shal ulug’ siymoning ruhlari madad bersin”*<sup>3</sup>.

Yoki:

*“Yigitali azamat tut daraxtiga tikilib qararkan, tegirmon boshidagi bahaybat marvarid tut ko’z o’ngida gavgdalandi”*<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Jack London Martin Eden p.436

<sup>2</sup> A.Qodiriy. O’tkan kunlar. Toshkent: Sharq, 2004. B-118

<sup>3</sup> P.Qodirov. Avlodlar dovoni. Toshkent: Sharq, 2012. B-89

<sup>4</sup> D.Nuriy. Osmon ustuni. T: Yosh gvardiya, 1979. B-102

Tut daraxti, unda g'arq pishib tovlanib turgan tut mevalarini "marvarid" donalariga (ham shaklan, ham rangi jihatdan) qiyos qilib, uni "marvarid tut" deb atash orqali yozuvchi bugungacha hech qo'llanmagan o'xshatishni yuzaga chiqargan.

Shoir Uyg'un she'riyatidan olingan ushbu parchani tahlilga tortsak:

*Har oqshom feruza kabi ufqlar,  
Zardan qulog'ida sirg'a taqadi.*

Ufq – yer va osmon tutashgan chegara. Quyosh botgandan so'ngra, ufqning feruza toshi rangini eslatuvchi tusga kirgani uchun shoir ufqni *feruzaga* o'xshatadi. Keyingi satrda esa so'zlardagi o'ziga xos mutanosiblik asosida ajoyib ma'noviy uyg'unlikka ham erishadi. Ya'ni, qorong'i tushgach osmonda birin-ketin yulduzlarning paydo bo'la boshlashini, go'yo ufqning "sirg'a taqishi"ga qiyos qiladi. Ko'kdagi yulduzlar esa o'ziga xos nur taratib turishgani uchun shoir ularni "zar" deb ataydi. Ijodkor "firuza", "zar", "sirg'a" so'zlarini ikki satrga jamlash orqali go'zal tasvir va ajoyib mutanosiblikni yaratgan. Falakka nisbatan "firuza" sifatining keltirilishiga ko'pgina ijodkorlarning ijod namunalarida duch kelamiz. Chunki, feruza toshi yashil rangining turli darajalarida tovlanuvchi qimmatbaho tosh bo'lib, musaffo osmon och yashil feruza toshiga o'xshaydi. Shu sababli bunday o'xshatishlarni ko'plab uchratishimiz mumkin:

*"Uning yarim ochiq ko'zlari musaffo, feruza osmonga qadalgan edi..."<sup>1</sup>*

Ingliz adabiyotida esa musaffo va ko'k osmon obrazini yaratishda "emerald sky" ya'ni "zumrad osmon" birikmasi juda ko'p ishlatiladi. Bir qator yozuvchilar (Gerry O'Hara, Nicole Schwall, Juliana Weber, David Clarkson) ning asarlari ham "Emerald sky" deb nomlanishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

*"Overhead, between the tips of the highest firs, he saw the first stars peeping, and the sky was a clean, pale amethyst that seemed exactly the colour all these memories clothed themselves with in his mind".<sup>2</sup>*

*"U tepada, eng baland archa daraxtlari orasidan, ilk yulduzlarning paydo bo'layotganini ko'rdi, osmon toza, xira ametist rangida edi, va bu go'yoki uning xayolida muhrlangan barcha xotiralar rangigadek edi.*

Bu jumlada esa osmon ametist toshiga qiyoslanmoqda. Bilamizki, ametist toshi tabiatda asosan binafsha rangda uchraydi. Osmonni bunday sifatlash orqali yozuvchi asar qahramonining ichki kechinmalarini ifodalashga urungan.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, xalqimizning suyuqli shoirasi Saida Zunnunova feruza rangini yaxshi ko'rgan. "Mehmondorchilikka borganida ham feruza toshli zirak taqqan ayollarni ko'rsa, ularning oldiga borib o'tirishga harakat qilgan.

<sup>1</sup> P.Qodirov. Yulduzli tunlar. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2015 . B-634

<sup>2</sup> Algernon Blackwood "John Silence, Physician Extraordinary. Case IV: Secret Worship

Ba'zan, qo'lidagi feruza toshli uzukka qarab jim bo'lib, qolar edi. Shunday damlarda yangi she'r yoki hikoya yaralar edi. Saida opaning aytishicha, feruza rang ularga yoshlikni, uy tomida o'tirib, zavq bilan tomosha qilgan moviy osmonini eslatar edi".<sup>1</sup>

*Kuyla sozim, yuragim, she'rim,*

*Baxt kitobin qilgin tarona.*

*Zamirida huquq, erk, nomus,*

*Har bir satri olmos, durdona.*

Shoir G'ayratiy ijodiga mansub ushbu bandda muallif o'z ijodining diliga qanchalar yaqinligini ko'rsatib turibdi, ya'ni shoirning o'z she'riga "sozim", "yuragim" deb murojaat qilishi ijodkor uchun o'zi yaratgan satrlar naqadar qadri va qimmatli ekanligini anglatadi. Va bu haqiqiy ijodkor uchun bir tabiiy holatdek, chunki chinakam shoir shunchaki yozmaydi. Halima Xudoyberdiyeva so'zi bilan aytganda: "shunchaki yozmoqlik shoirga o'lim". Tabiatda mavjud bo'lgan nodir toshlar ichidagi eng qimmatbahosi olmos hisoblanadi. Shu boisdan shoir uchun she'rning har bir satri bir "olmos"dir. Qalbining bir parchasi aks etgan, "baxt kitobini tarona qiluvchi" satrlar o'z qimmatini jihatdan hech bir olmosdan qolishmaydi.

*Yoqut* dunyodagi eng qimmatbaho toshlardan biri hisoblanadi. Toshga bu nom uning muhtasham va maftunkor qizil rangi uchun qo'yilgan va bu so'z "qizil" degan ma'noni anglatadi. Odatda, badiiy matnlarda yorning labi yoqutga qiyos qilinadi. Bu o'rinda labning qizilligina emas, balki ayolning maftunkorligi asosiy unsurlardan biri bo'lgani uchun ham yoqut sifati keltiriladi. Chunki, yoqut qadimdan go'zallik, maftunkorlik, muhabbat toshi hisoblangan. Ammo, quyida keltirilgan badiiy parchada toshning faqatgina rang xususiyati va (suv vositasi bilan) jilolanishidan foydalanilgan:

"...Bir tup jaydari qizil olma mevasining mo'lligidan hovuzga engashib tushgan: hovuz suvida qizil olma yoqutday, jimillab suzadi".<sup>2</sup>

Yuqoridagi misolda qizil olma yoqutga qiyoslansa, quyida ingliz adabiyotidan olingan parchada *apelsin* mevasining "oltin meva" deb atalishiga sabab bu mevaning to'q sariq rangidir.

"...Sir Henry and Good slept in a tent pitched in my little grove of *orange trees* at the end of the garden, and what with the smell of the bloom and the sight of the green and *golden fruit*- for in Durban you will see all three on the tree together."<sup>3</sup>

Salobatli, xushqomat bengin orqarog'ida –qabulxonaning eng ko'zga ko'rinarli joyida bir tup atirgul yarqirab turibdi: poyalari oltindan, barglari zumraddan, to'q qizil gullari yoqutdan, gul shoxiga qo'nib turgan kichkina oltin bulbulning tumshuqchasida – don o'rnida sof gavhar jilolanib turibdi. Qabulxonaning eshik va

<sup>1</sup> //arboblar.uz/uz/people/zunnunova –saida

<sup>2</sup> Oybek. Tanlangan asarlar. Toshkent:Sharq, 1979. B-247

<sup>3</sup> H. Rider Haggard KING SOLOMON'S MINES P.19

derazalariga osilgan shohi pardalarga ham durlar, la'llar va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan edi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar/ T.,2018.)

“La'l”, “yoqut” kabi qizil tusda tovlanuvchi qimmatbaho javohirlar mumtoz adabiyot namunalarida “lab”ning asosiy badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Zohiran, labning qizilligi bilan javohirlar qizilligi o'rtasida tashqi o'xshashlik kuzatiladigan bo'lsa-da, botinda *labi la'l* – ma'shuq kalomining botiniy ma'nosi, ahvolning sofliqi, nozikligi hamda husn-u jamol go'zalliklari zikrini qamrab oladi<sup>1</sup>.

*Telba ko'nglum yor zulfi toridan ayrilmagay,*

*Joni zorim la'lning guftoridin ayrilmagay.*

Ingliz adabiyotida ham yorqin qizil rangni ifodalash uchun “ruby” ya'ni “yoqut” qimmatbaho tosh nomiga murojaat qilinadi va bunda “ruby” sifat so'z turkumiga mansub bo'ladi. Yonoqlar va lablarning *yoqut* (“ruby”)ga qiyoslanishini ko'plab ingliz adiblarining ijodida uchratish mumkin.

*“And keep the natural ruby of your cheeks,*

*When mine is blanch'd with fear”<sup>2</sup>*

Yuqoridagi misralarda buyuk yozuvchi Shekspir yonoqlar qizarishini *yoqut* (*ruby*)ga qiyoslagan bo'lsa, quyidagi satrlarda esa lablar la'lga qiyoslanadi:

*Diana's lip*

*Is not more smooth and rubious<sup>3</sup>*

## NATIJALAR

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tili badiiy matnida qo'llanilgan tosh nomlarining ba'zilari o'xshash uslubiy vazifalarni bajaradi. Misol uchun, lab va yonoqlarning *yoqut* yoki la'lga o'xshatilishi; quyosh oltinga; quyosh nurlari oltin ipga; keksaygan insonlar sochlari kumushga; kuz fasli oltinga; aql zakovatli, tafakkurli shaxslar oltinga; imon, ya'ni Allohga ishonish marvaridga; sarg'aygan yaproqlar oltinga o'xshatilishi ikki tilda ham bir xil uslubiy vazifalarni bajaradi.

Shu bilan bir qatorda, har bir tilning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, shaxs yoki narsani ifodalashda turli qimmatbaho tosh nomlaridan foydalaniladi. O'zbek adabiyotida yosh tomchilari marjon yoki olmosga qiyoslansa, ingliz adabiyotida ko'z yoshlar marvarid(pearl) yoki billur (crystal)ga qiyoslanadi. O'zbek adabiyotida “feruza osmon” birikmasi juda tez tez qo'llanilsa, ingliz badiiy matnlarida musaffo samoga nisbatan “feruza osmon” (“turquoise sky”), “zumrad osmon” (emerald sky), shuningdek “ametist osmon” (amethyst sky)birikmalarini uchratish mumkin. Go'zal qizlar obrazi o'zbek adabiyotida “la'l” orqali ifodalansa, ingliz adabiyotida esa ular ko'proq “marvarid”(pearl) orqali ifodalanadi.

<sup>1</sup>[http://navoi.natlib.uz:8101/uz/devoni\\_foniy](http://navoi.natlib.uz:8101/uz/devoni_foniy)

<sup>2</sup> W.Shakespeare Macbeth Act 3, Scene 4,113-115

<sup>3</sup> W.Shakespeare Twelfth Night,Act 1,Scene 4, 30-33

## MUHOKAMA

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bir tilda qo'llanilgan ba'zi o'xshatishlar ikkinchi tilda kuzatilmaydi. Ingliz badiiy matnida qo'llanilgan "opal mind" – "opal xayol" (o'zgaruvchan xayol ma'nosida); "heart like an agate"- agatdek (qattiq)yurak; "the chrysolite of sunrise"- "quyosh chiqishining xrizoliti"; "sapphire ocean"- safir okean; "sapphire tinted skies" – "safir rangli samo"; "*amethystine locks*"-"ametistdek kokilllar" o'zbek badiiy matnida qo'llanilmagani kabi, ustozning sadafga; harfning durga; tarbiyaning yoqutga oxshatilishi ingliz adabiyotida uchramaydi.

Badiiy adabiyot namunalarida qo'llanilgan taqinchoq va qimmatbaho tosh nomlari aksariyat hollarda ijobiy ma'noga ega bo'lib, ular ko'pincha go'zallik va boylikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bu so'zlar obraz va hissiyotlarni uyg'otuvchi so'z sifitida ham ishlatilgan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz badiiy matnlarida qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining qo'llanish ko'lami ancha keng bo'lib, ular turli xil uslubiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi: Jumladan:

- narsa yoki buyumning rangi, shakli, tibbiy xususiyati, vazifasi, kimyoviy xossasini ifodalash;

- go'zallik, jozibadorlik, soflik, noziklik, maftunkorlikni ifodalash;

- qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalarini ifodalash;

- qahramonning tashqi ko'rinishi, husnu jamoli va yoshini ifodalash;

- shaxs va buyumning inson uchun ahamiyati, qadrini ifodalash;

- shaxsning jamiyatdagi mavqeini ifodalash;

- pul birligini ifodalash;

- inson tabiati, fe'l atvori, xulqini ifodalash;

- tabiat ne'matlarining bebaho, aziz va qadrli ekanligini ifodalash;

- aql zakovatli, yetuk tafakkurli, yuqori qadr qimmatli, foydali shaxs obrazini ifodalashda xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jabborov, N. 2023 "Alisher Navoiy merosi va milliy ma'naviyat" <http://uchildiz>
2. Azimova, F. 2020 So'z durki, nishon berur o'likka jondin... Xalq so'zi
3. La'l haqida <https://qomus.info/oz/encyclopedia/1/lal/>
4. Abdulxayr, M. 2020 [Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiyning botiniy ramzlari](https://qashqadaryogz.uz/read/)
5. Jack London(1997) Martin Eden p.436 <https://www.gutenberg.org/ebooks/1056>



6. A.Qodiriy (2004) "O'tkan kunlar" B.118. Toshkent: Sharq
7. P.Qodirov(2012). Avlodlar dovoni. B-89. Toshkent: Sharq.
8. D.Nuriy (1979). Osmon ustuni. B-102 T: Yosh gvardiya.
9. P.Qodirov (2015). Yulduzli tunlar. B-634. Toshkent. Yangi asr avlodi.
10. Blackwood, A.(2023) "John Silence, Physician Extraordinary.Case IV: Secret Worship  
[https://en.wikisource.org/wiki/John\\_Silence,\\_Physician\\_Extraordinary/Case\\_IV](https://en.wikisource.org/wiki/John_Silence,_Physician_Extraordinary/Case_IV)
11. Oybek (1979) Tanlangan asarlar. B-247. Toshkent:Sharq.
12. H. Rider Haggard (2020) KING SOLOMON'S MINES P.19  
<https://www.gutenberg.org/files/2166/2166-h/2166-h.htm>
13. W.Shakespeare Macbeth Act 3, Scene 4, p.113-115  
<https://myshakespeare.com/macbeth/act-3-scene-4>
14. W.Shakespeare Twelfth Night,Act 1,Scene 4, p.30-33  
<https://www.playshakespeare.com/twelfth-night/scenes/act-i-scene-4>

## REFERENCES

1. Zhabborov, N. 2023 "The legacy of Alisher Navoi and national spirituality "  
<http://uchildiz>
2. Azimova, F. 2020 So'z durki, nishon berur o'likka jondin... Folk word
3. About ruby <https://qomus.info/oz/encyclopedia/l/lal/>
4. Abdulkhair, M. 2020 Mysterious symbols of Mawlana Lutfi and Alisher Navoi  
<https://qashqadaryogz.uz/read/>
5. Jack London (1997) Martin Eden P.436 <https://www.gutenberg.org/ebooks/1056>
6. A.Kadyri (2004) "Days gone by" p.118. Tashkent: Vostok
7. P.Kadyrov (2012). The mountain pass of generations. p89. Tashkent: East.
8. D.Nuri (1979). The pillar of the sky. p102. Young Guard.
9. P.Kadyrov (2015). Starry nights. P.634. Tashkent. The generation of the new century.
10. Blackwood, A. (2023) " John Silence, Physician Extraordinary.Case IV: Secret work  
[https://en.wikisource.org/wiki/John\\_Silence,\\_Physician\\_Extraordinary/Case\\_IV](https://en.wikisource.org/wiki/John_Silence,_Physician_Extraordinary/Case_IV)
11. Oybek (1979) Selected works. P.247. Tashkent:East.
12. H. Rider Haggard (2020) King Solomon's Mines p.19  
<https://www.gutenberg.org/files/2166/2166-h/2166-h.htm>
13. W.Shakespeare Macbeth Act 3, Scene 4, p.113-115  
<https://myshakespeare.com/macbeth/act-3-scene-4>
14. W.Shakespeare Twelfth Night, Act 1, Scene 4, p.30-33  
<https://www.playshakespeare.com/twelfth-night/scenes/act-i-scene-4>